

GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

A'zamova M.G.

O'zDJTSU., O'qituvchi.

Jahongirov B.B.

O'zDJTSU., Professor v.b.

Abdikadirova N.S.

O'zDJTSU., Dotsent v.b.

Nurullayeva Dj.S.

O'zDJTSU., Dotsent v.b.

Mirdjamolova N.Z.

O'zDJTSU., Katta o'qituvchi.

Xushvaqtov Z.R.

O'zDJTSU., O'qituvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15676684>

Annotatsiya. Mazkur maqola XXI asrning dolzarb muammolaridan biri- ekologik muammolar, oqibatlar va ularning yechimlariga bag'ishlangan bo'lib, xalqaro tashkilotlar tomonidan bu borada olib borilayotgan ishlar hamda O'zbekiston misolida Orol muammosiga alohida to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, tabiat, global muammo, Orol, Vena Konvensiyasi, Parij bitimi

Аннотация. Данная статья посвящена одной из актуальных проблем XXI века — экологическим проблемам, их последствиям и решениям, подробно рассматривается работа, проводимая международными организациями в этом направлении, а также проблема Аральского моря на примере Узбекистана.

Ключевые слова: экология, природа, глобальная проблема, Аральское море, Венская конвенция, Парижское соглашение.

KIRISH

Iqtisodiy o'sish, sanoatning rivojlanishi va aholi sonining ortishi insoniyatning atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini kuchaytirdi. Global iqlim o'zgarishi, suyultirilgan tabiiy resurslar, ifloslangan havo, suv va tuproq, shuningdek, biologik xilma-xillikning kamayishi – bularning barchasi ekologik krizisning asosiy belgilari bo'lib qolmoqda.

Yer sharining ekologik ko'rinishi avvalgidan ko'ra ancha achinarli axvolga kelib qolyapti.

Ekologiya muammosi globallashib, insoniyat hayoti, salomatligi va hatto kelajagiga salbiy ta'sir etmoqda. Ozon qatlamining yemirilishi va iqlimning o'zgarib borishi natijasida onkologik kasalliklar, immun tizimining zaiflashuvi xavflari kelib chiqmoqda. Bu kabi muammolarni hal qilish avvalo uning kelib chiqish sabablarini chuqur o'rganish talab etiladi.

Ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari asosan quyidagilardan iborat:

Aholi sonining tez o'sishi, sanoat va texnika rivojlanishi, tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish, chiqindi, gazlar va kimyoviy moddalarning zararli oqibati.

Yana bir etiborga ega ekologik muammolarga toza ichimlik suvi tanqisligi ham kiradi.

Ko'pchilik foydalanishga yaroqli suvimiz bir kun kelib tugashi mumkinligini bilmaydi. 2030-yilga kelib suvga bo'lgan talab va suv taminoti o'rtasida 40% tafovut ko'rinmoqda.

Dunyoning yetakchi olimlaridan tuzilgan, 750 mutaxassisdan iborat jamoa bu soxa bo'yicha tekshiruvlar o'tkazib toza ichimlik suvi tugab borishi chinakkamiga global xavf ekanligini qayd etdilar. Aslida ham shunday .Ichimlik suvi tanqisligi Afrika xalqlari hayotida qiyin vaziyatlar olib kelib ulgurgan. Masalan mintaqada nosog'lom avlod, tabiiy abortlar, ochlik, o'simlik va hayvonot olamining keskin kamayib ketishi kabi holatlar kuzatilmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Ekologik muammolarni bartaraf etish uchun dunyo bo'ylab davlatlar, xalqaro tashkilotlar va jamoatchilik turli strategiyalarni amalga oshirmoqda. Ushbu yechimlar keng qamrovli bo'lib, qonunchilik, texnologiyalar, ta'lim va xalqaro hamkorlikka asoslanadi.

Quyida ushbu yechimlarning asosiy yo'nalishlari keltirilgan:

Qonunchilikni kuchaytirish xalqaro hamkorlik va kelishuvlar

Texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish

Ekologik ta'lim va xabardorlikni oshirish

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

Jamoatchilik nazorati va fuqarolar ishtiroki[4]

1985-yilda dunyoning 147 ta mamlakati ishtirokida «Ozon qatlamini muhofaza qilish» to'g'risidagi Vena konvensiyasi qabul qilindi. Oradan 2 yil o'tgach 1987-yilning 16-sentabrda ozon qatlamini yemirivchi moddalar bo'yicha Monreal protokoli imzolandi. Global ekologik muammolar faqat bitta davlat tomonidan hal etilishi mumkin emas. Shuning uchun xalqaro hamkorlik asosida bir qator kelishuvlar, masalan, Paris kelishuvi va Montreal protokoliga amal qilinmoqda. Bu kelishuvlar orqali chiqindilar va issiqxona gazlarini kamaytirish hamda resurslarni global darajada oqilona boshqarish samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

Mazkur tadbirlardan maqsad global isishni nazoratga olishdan iborat.2050-yilga borib issiqxona gazlarinining global ajratmalarini 40-70% kamaytirishni, 2100 yilgacha esa uning 0 yoki manfiy ko'rsatgichga yetkazishni talab qiladi. [1]

Bundan tashqari qurg'oqchilik muammosi ham yechimini kutayotgan muhim muammolardan hisoblanadi.Shu o'rinda global muammoga aylanib ulgurgan Orol dengizining qurishi masalasiga alihida to'xtalib o'tish joizdir. Xalqaro hamkorlik va kelishuvlar hamda mamlakat miqyosida olib borilayotgan ishlar tahsinga loyiq. Ammo ishlar ko'lamini kengaytirish-davr taqazosi bo'lib qolmoqda.

Orol dengizi O'rta Osiyoda va butun dunyodagi eng yirik sho'r ko'llardan biri xisoblanadi. Yaqin davrlarda uning maydoni orollar bilan birga deyarli 68,0 ming kv km ni, suvning hajmi 1000 kub km ni tashkil etgan. O'rtacha chuqurligi 50,5 m atrofida bo'lgan Xavzasining kattaligi jihatdan Kaspiy dengizi va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin 4 o'rinda turgan. Orol dengizida 300 dan ortiq orollar bo'lib, ulardan eng kattasi Ko'korol, Borsakelmas bo'lgan. Orol dengiziga 20-asrning 60-yillarigacha Amudaryodan 38,6 kub km, Sirdaryodan 14,5 kub km, suv kelib turgan. Dengiz cho'l mintaqasida joylashganidan uning yuzasidan xar yili 1 m qalinlikdagi suv bo'lgan. O'tgan asrning boshlarida suv satxi pasaya boshlagan. Masalan, 1911—1960-yillar davomida Orol dengiziga daryolardan yog'in bilan birga bir yilda, o'rtacha 65 kub, km suv kelib turgan; suv yuzasidan esa 66,10 kub, km suv bug'langan. [4]

Shunday qilib, xar yil dengiz 1 kub km 50 yil davomida esa 50 kub. km suvni yo'qotgan.

Suv satxi ayniqsa, o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab sugoriladigan yerlarning sobiq sovet xokimiyati tarafidan kengaytirilishi, Amudaryo va Sirdaryo suvlarining sug'orishga ishlatilishi tufayli keskin kamaya boshlagan. O'tgan 40 yildan ko'proq vaqt davomida Orol dengizining maydoni 4 marta, suv satxi 1,8 marta, undagi suv hajmi 9 martaga yaqin qismi kamaydi. Dengiz suvining sho'rlanishi 9-10 g/ l dan 70-84 g/l gacha ortgan. Xozirgi kunda dengiz chuqurligining kamayishi yiliga 80-110 sm ni tashkil etadi. Ekologik tanglik Orol bo'yi tabiati, o'simliklar va hayvonot dunyosiga xam katta ziyon yetkazdi. Suv zahiralarning kamayishi natijasida yaylovlarda chorva uchun oziq bo'ladigan o'simliklar turi kamayib, o'tloqlar maydoni 3martaga qisqardi. Amudaryo va Sirdaryo suvining kamayishi, suv toshqinlarning bo'lmasligi, to'qaylardagi xilma-xil o'simliklarning qurib, yo'q bo'lib ketishiga olib keldi.

To'qaylarning yo'qolishi ko'plab o'simlik va hayvon turlarining qirilib ketishiga sabab bo'ldi. [2]

20-asrning ikkinchi yarmida Amudaryoning quyi qismidagi to'qaylarning buzilishi bilan bu joylardan yo'lbars, Buxoro bug'usi yo'qolib ketdi. Janubiy Orol bo'yidagi 60 dan ortiq noyob o'simliklar, qushlardan 10 ga yaqin turi yo'qolib borayotgani va 42 turidan ortig'i „noyob“ turga aylanayotgani haqiqatdir. Sho'rlanishning keskin ortishi tufayli Орол dengizi tobora «O'lik» dengizga aylanib bormoqda. Lekin bu holatlarning oldini olish uchun O'zbekiston Respublikasi prezidenti tashabbusi bilan 2018 yil saksovu ekish tajribasi qo'llanildi. Orol dengizining qurigan maydoniga saksovu ekish ishlarida 1 минг 560 kishi ishtirok etdi. Bu ishlarga 462 texnika va 2 samolyo jalb qilingan. Saksovu ekilishining asosiy sababi atrofga tarqalayotgan tuzlar miqdorini saksovullar tutib qolishi va havoda namlikni birmuncha saqlashi uchun choralar qo'llandi. [3]

2017-yil 19-aprelda BMTning Bosh qarorgohida Parij bitmi imzolangan, biroq hozirgi paytga qadar bu bitimni ratifikatsiya qilmagan edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis Qonunchilik palatasi tomonidan BMTning «Iqlim o'zgarishi» to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi O'zbekiston uchun manfaatli imkoniyatlarni taqdim etdi. Masalan energiya samaradorligi va energiya tejash bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirishda iqlimiy moliyalashtirish resurslarini jalb qilish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini yaxshilash va ularni rivojlantirish, salbiy ekologik oqibatlar, Orol fojiasi, cho'llanish, qurg'oqchilikka va shunga o'xshash vaziyatlarga qarshi kurashishga imkoniyat beradi. [4]

Xozirgi vaqtda maxsus jamg'arma umumiy qiymati 1.5 milliard AQSh dollari bo'lgan 35 ta loyixani moliyalashtirilmoqda. Ularning orasida O'zbekiston va Tojikiston uchun Jahon banki bilan hamkorligidagi «Orol dengizi havzasida iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oldini olish dasturi» loyixasini moliyalashtirish masalasi ham ko'rib chiqilgan bo'lib, buning uchun ajratilgan grant 20 mln AQSH dolloriga teng kelmoqda. Butun Jahon metrologiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kungacha global yillik o'rtacha havo harorati 1880 yildagi darajadan 1C ga ortgan. O'zbekistonning xuddi shu davr uchun o'rtacha yillik harorati 1,6C ga ko'tarilgan. Bundan ko'rinadiki, O'zbekiston global issiqlik juda yuqori darajaga oshgan. Bu muammolarning oldini olish, ta'sirini kamaytirish maqsadida xalqaro miqyosda chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. 2025 yilni O'zbekistonda «Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili» deb nomlanishi ham bejiz emas. [5]

XULOSA

Muammolarga har birimiz fuqarolik pozitsiyasida turib yechim topishimiz, oldini olishimiz, ekologik bilim va madaniyatimizni oshirib borishimiz ham katta ko'ngilsizliklarni oldini olishga yordam berishi mumkiligini unutmaylik. Ichimlik suvini tejash, o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, farzandlarimizni tabiatga mehr ruhida tarbiyalash har birimizning qo'limizdan keladi, albatta.

Ba'zi insonlarga bu kabi ekologik muammolar qiziqmasdir lekin bu muommolar balki uning farzandiga ta'sir qilmas, lekin shu holat davom etsa uning keyingi avlodlari albatta havf ostida qolishi, nogiron farzandlar dunyoga kelishi mumkin. Ozgina e'tibor, tabiatga hurmat, uni avaylab asrash, o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish insoniyat kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologiya juda etiborga loyiq dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Turli kasalliklar, jumladan allergik astmalar soni ko'payib bormoqda. Tabiat inson tomonidan hurmatsizlanar ekan, tabiat ham bizni jazolashdan qolmaydi.

REFERENCES

1. Жаҳонгиров Б. Б. Научно-технические связи Узбекистана с зарубежными странами //Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 8. – С. 284-288.
2. Жаҳонгиров Б. Б. ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЯПОНИЯ БИЛАН ИЛМИЙ ТЕХНИКАВИЙ АЛОҚАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. Special Issue 1. – С. 312-318.
3. Жаҳонгиров Б. Б. Ўзбекистоннинг хорижий мамлакатлар билан илм-фан соҳасидаги ҳамкорлик алоқалари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 986-994.
4. Жаҳонгиров Б. Б. Ўзбекистоннинг хорижий давлатлар билан илмий-техникавий ҳамкорлиги (илмий-тадқиқот институтлари мисолида) //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 5-2. – С. 823-829.
5. Жаҳонгиров Б. Б., Турғунов Т. А. ЎЗБЕКИСТОННИНГ ОСИЁ МАМЛАКАТЛАРИ БИЛАН ИЛМИЙТЕХНИКАВИЙ АЛОҚАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1010-1021.
6. Жаҳонгиров Б. Б. Ўзбекистон фанлар академиясининг хорижий мамлакатлар билан илмий-техникавий алоқалари. ҚарДУ хабарлари Илмий-назарий, услубий журнал. Махсус сон (Ижтимоий фанлар) //ҚдрДУ хабарлари Илмий-назарий, услубий журнал. Махсус сон (Ижтимоий фанлар).-К, арши. – 2020. – С. 254-258.
7. Джахангиров Б. Б. Международные связи Узбекистана в области науки //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 15-19.
8. Жаҳонгиров Б. Б. ЎЗБЕКИСТОННИНГ ҲИНДИСТОН БИЛАН ИЛМИЙ ТЕХНИКАВИЙ АЛОҚАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 1058-1065.
9. Жаҳонгиров Б. Б., Бўронов А. Б. Ў. ЎЗБЕКИСТОННИНГ ХИТОЙ БИЛАН ИЛМИЙ ТЕХНИКАВИЙ АЛОҚАЛАРИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 372-379.
10. Жаҳонгиров Б. Б. Узбекистонда илм-фан ҳолати, тараккиёт йуналишлари (1980-2010 йиллар) Монография." //Монография." Qaqpus media" нашриёти, Тошкент. – 2020.

11. Жахонгиров Б. Б. НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА С ЗАРУБЕЖНЫМИ СТРАНАМИ //Наука и образование: проблемы и тенденции развития. – 2016. – №. 1. – С. 18-20.
12. Jahongirov B. Ўзбекистон ва Туркия муносабатлари //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. C8. – С. 211-215.
13. Nurullayeva D. S. et al. ETHICAL PROBLEMS AND THEM IN THE FIELD OF NATURE SOLUTIONS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 480-486.
14. Abdikadirova N. S. et al. Football in Uzbekistan: Law, Leisure and Sociology //Psychology and education. – 2021. – Т. 58. – №. 1. – С. 1995-2002.
15. Abdikadirova N. S. Mechanisms of forming youth leisure organization. modern education systems in the usa, the eu and the post-soviet countries. – 2020.
16. Abdikadirova N. S. Existing Systems for Organizing Youth Leisure in The World //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2023. – Т. 10. – №. 2. – С. 568-572.
17. Абдикадилова Н. С. ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА ЁШЛАРНИНГ БЎШ ВАҚТИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШДА СПОРТНИНГ РОЛИ //Fan-Sportga. – 2020. – №. 5. – С. 54-56.
18. Abdikadirova N. THE UNIQUENESS OF THE INTELLECTUAL FREE TIME OF UZBEKISTAN'S STUDENTS //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 220-228.
19. Abdikadirova N. S. ROLE OF CHESS IN ORGANIZATION OF YOUTH LEISURE //EURASIAN EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION. – 2020. – С. 30.
20. Азамова З. Б. НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ РАБОТЫ СЛЕДСТВЕННЫХ ОРГАНОВ ПО ПРЕСЕЧЕНИЮ ПРЕСТУПЛЕНИЙ //Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана. – 2015. – №. 5. – С. 128-132.
21. Kazakov R. T. et al. MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 99-105.
22. Казоков Р. Т. и др. МАМЛАКАТИМИЗ ЯНАДА ЮКСАЛИШИДА БОЛАЛАР СПОРТИНИНГ ЎРНИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 5-11.
23. Казоков Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
24. Казоков Р. Т. Кейс стади технологияларидан фойдаланиб талабаларнинг масофавий таълим технологиялари асосида педагогик маҳоратини шакллантириш //Замонавий футболни ривожлантириш тенденциялари: муаммо ва ечимлари. – Т. 11. – №. 1.
25. Казоков Р. Т., Мирзабдиллаева А. И., Мирзабдиллаева Х. И. МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАВНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 29-34.
26. Казоков Р. Т. и др. ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМДА КЕЙС-СТАДИ ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИ АСОСИДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

- ЮЗАСИДАН ТАЖРИБА-СИНОВ ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ
//Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 111-115.
27. Kazonov R. T., Djurabaev A. M. Kredit modul tizimi nima //Ta’limni raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – С. 198-206.
28. Казоков Р. Т. и др. КАСБИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИЛФОР ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ //GOLDEN BRAIN. – 2024. – Т. 2. – №. 8. – С. 69-77.
29. Казоков Р. Т., Жўракўзиев О. О., Эшпўлатов С. С. СПОРТ МУАССАСАЛАРИДА ТАРБИЯВИЙ ТАДБИРЛАРДА МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 238-248.
30. Казоков Р.Т., Бўриев Б.Ў., Абдиев Б.Ш., Джўрабаев А.М., Туропов А.Р.КУРАШ МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ЎЎНАЛИШЛАРИ // МИЛЛИЙ КУРАШ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ НАЗАРИЙ-АМАЛИЙ МУАММОЛАРИ. - 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 161-163.
31. Ziyamuxamedova S. A., Kazonov R. T., Shukurova S. S. SOME BIOCHEMICAL BLOOD RESEARCHES OF ROWERS DURING PREPRATION PERIOD AND CONTESTS //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 982-989.
32. Kazonov R. T. QISQA MASOFAGA YUGURUVCHI SPORTCHI TALABALARNI HARAKATLANISH TEXNIKASINI BIOMEXANIK KO ‘RSATKICHLARDAGI KAMCHILIKLARNI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA BARTARAF ETISH HISOBIGA YUGURISH TEXNIKASI TAKOMILLASHTIRISH //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 11. – С. 271-279.
33. Нуруллаева Д.С. Legal status of football agents and their requirements - Web of scientist: international scientific, Research journal, volume 5, issue 10, oktober 2024 – p.11-18
34. Нуруллаева Д.С. Футбол мусобақаларида допингга қарши кураш чоралари - Fan-sportqa Ilmiy-nazariy jurnal 2025/2 –Б.70-73
35. Нуруллаева Д.С. Gender Roles and Changes in Society- International Journal of Scientific Trends- (IJST) Volume 4, Issue 2, February – 2025.-p.49-53
36. Нуруллаева Д.С. Подготовка футболистов в Узбекистане к тест системе «YO-YO». Фалсафа ва ҳуқуқ-журнал 1-. – 2025. –С.96-99.
37. Мирджамалова Н.З. “Хотин-қизлар орасида соғлом турмуш тарзини олиб боришда -жисмоний тарбия ва спортнинг рўли”. “Спортда илмий тадқиқотлар” журнал.2023.-Б.84-87.
38. Мирджамалова Н.З “Хотин-қизлар ҳаётида соғломлаштирувчи жисмоний машқларнинг аҳамияти” “Спорт ва Медицина” журнали. 06.2023.-Б.86-89
39. Мирджамалова Н.З Оздоровительная аэробика: содержание и методика.FAN-SPORTGA ILMIY-NAZARIY JURNAL 2023/3.-Б.43-46
40. Mirdjamalova N.Z.Milliy g’oya va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida maktab ta’limining o’rni. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH»VOLUME.3/ISSUE.12./UIF:8.2/ MODERN SCIENCE.UZ-2024

41. Xushvaqto'v Zohidjon Roziqovich. Sport nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishning huquqiy asoslari. Universal journal of social sciences, philosophy and culture volume 3 ISSUE 23 ISSN 2992-8834.-B. 235
42. Xushvaqto'v Zohidjon Roziqovich. Yulduzlar ortida qoldirilgan meros. Zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar jurnali <http://zamtadqiqot.uz/index.php/ZTFITJ/>.-B.42
43. Azamova. M.G'. Jamiyat tarixiy taraqqiyotida ayollarning orni Toshkent 2025.
44. Azamova. M.G'. Tabiat sohasida etika muammolari va ularni yechish yo'llari. "Modern science and Research jurnali. 2025.